



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

**“BOSHLANG'ICH TA'LIM INNOVATSION  
KLAISTERI VA RAQAMLI TA'LIM:  
EHTIYOJ, ZARURAT, NATIJA”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**Бухоро - 2021**

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| KIRISH .....  | 8  |
| 1-SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION KLASTER: MUAMMO VA YECHIMLAR....  | 9  |
| <a href="#">O.X.Xamidov</a> . Ta‘lim klasterining afzalliklari.....   | 9  |
| <a href="#">Гофуржон Мухамедов</a> Педагогик таълим кластери: чирчиқ тажрибаси .....  | 11 |
| <a href="#">Maxmudov M.X</a> Ta‘limga klaster yondashuvning nazariy-metodologik asoslari .....  | 15 |
| <a href="#">То‘xсанов Q.R.</a> Maktab - universitet - ishlab chiqarish bosqichlarida klaster yondashuvlar – samaradorlikning kafolati .....                     | 16 |
| <a href="#">Ro‘ziyeva M.Y.</a> Raqamli ta‘lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillari.....  | 19 |
| <a href="#">Б.С.Жамилова</a> Болалар ижодий тафаккурини шакллантиришда педагогик таълим инновацион кластери фаолиятининг самарадорлиги .....                    | 21 |
| <a href="#">Ходжамкулов У.</a> Педагогик таълим инновацион кластери: хорижий тажриба ва миллий ташаббус .....   | 24 |
| <a href="#">Акратова G.R.</a> Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion klasterga ehtiyoj .....   | 30 |
| <a href="#">A.P.Хамроев</a> Бошланғич таълимга замонавий ёндашув: натижа ва таҳлил .....  | 31 |
| <a href="#">Жамилова Б.С., Нигора Муртазоева</a> “Мактаб-лаборатория” тажриба инновацион майдончалари истиқболли лойиҳалар кафолати.....                        | 33 |
| <a href="#">Ziyodova Zahro</a> Badiiy asarni tushunish va tahlil qila olish ko`nikmasini shakllantirishda pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri ahamiyati ..... | 34 |
| <a href="#">Subhonova S. U.</a> Boshlang‘ich ta‘limda fanlararo integratsiya va innovatsion loyihalar klaster modeli namunasi sifatida .....                    | 35 |
| <a href="#">Kuzmanova G.B.</a> Boshlang‘ich sinf matematika darslarida matnli masalalrni yechishga o‘rgatishda innovatsion klaster usuli .....                  | 38 |
| <a href="#">Миртурсунова Ю.А</a> Термин «образовательный кластер» в современной методике .....  | 41 |
| 2-SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM INNOVATSION KLASTERINI TASHKIL ETISH ZARURATI ...   | 45 |
| <a href="#">Тешабоева З. С</a> Илм-фан ва таълим тизимида кластер- соғлом рақобат омили.....  | 45 |
| <a href="#">Boltayeva M. A.</a> Badiiy asar tahlili – o‘quvchi nutqini o‘stirishda muhim omil .....   | 46 |
| <a href="#">Хусенова М. Х.</a> Pirls халқаро баҳолаш тизими .....   | 48 |
| <a href="#">Умарова З.</a> Бошланғич синфларда педагогик конфликтларни бартараф этишнинг инновацион кластери.....   | 51 |
| <a href="#">Очилов Ф.И.</a> Бошланғич синф ўқувчиларига табиий-илмий билимларни ўргатишнинг мавжуд муаммоларини бартараф этишда кластернинг аҳамияти.....       | 54 |
| <a href="#">Boboqulova.S.B, Isoyeva.M.B</a> Markov jarayonlari va zanjiri .....   | 56 |
| 3- SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION KLASTER - FANLARARO INTEGRATSIYA VA UZVIYLIKNI TA‘MINLASH KAFOLATI .....   | 59 |
| <a href="#">Абдуллаев А. А.</a> Мактабгача таълимда кластер самараси.....   | 59 |
| <a href="#">Бердиева М. М., Курбонмуродова Ф.</a> PIRLS баҳолаш тизими асосида саволлар миллий базасини яратиш долзарб аҳамияти .....                           | 61 |
| <a href="#">Халилова Р. Р.</a> Виртуал мулоқот имкониятлари.....  | 63 |

2. Терешин Е. М., Володин В. М. Современная дефиниция понятия «кластер» и подходы к формализации этого явления // Экономические науки. 2010. № 2 (63).
3. Растворцева С. Н., Череповская Н. А. Идентификация и оценка региональных кластеров // Экономика региона. 2013. № 4. С. 123–133.
4. Нормативные документы по дуальной системе обучения от 24.04.2013. URL: [www.ksturu/article](http://www.ksturu/article)
5. Анисцына Н. Н. Инновационный научно-образовательный кластер как способ организации инновационной деятельности в вузе // Креативная экономика. 2010 № 4 (40). С. 91–97.
6. Концепция развития педагогического образования на 2015–2020 годы : утв. Приказом Министерства образования Респ. Беларусь, 25 фев. 2015 г., № 156. [Электронный ресурс].- Режим доступа: [http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The concept of teacher education.pdf](http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The%20concept%20of%20teacher%20education.pdf). –с.10.
7. Innovation clusters in France: Innovation Comes First. URL: <http://www.invest-infrance.org/us/why-choose-france/research-and-partnerships-innovation-clusters.htm>)
8. Галичин, В. А. Международный рынок образовательных услуг: основные характеристики и тенденции развития / В. А. Галичин // Век глобализации. – 2013. – № 2. – С.109.
9. Соколова, Е. И. Термин «Образовательный кластер» в понятийном поле современной педагогики / Е. И. Соколова // Непрерывное образование: XXI век. – 2014. – № 2 (6). – С.155.
10. Пути кластеризации экономики с целью повышения конкурентоспособности Запорожской области / Соколенко С. И. [и др.]. // Международная Фундация содействия рынку; Союз экономистов Украины; Торгово-промышленная палата Украины; ОАО «Укримпэкс» [Электронный ресурс]. – Киев. – 2010. – Режим доступа: <http://litcey.ru/ekonomika/9155/index.html?page=8>.
11. Сенюк, Н. Ю. Возможности и механизмы инновационно-инвестиционного сотрудничества России и КНР в эпоху глобализации / Н. Ю. Сенюк // Качество. Инновации. Образование. – 2007. – № 4 (23). – С. 37-47
12. Solvell O., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative GreenBook, 2003. Электронный ресурс: <http://www.cluster-research.org>.
13. Elektronnyj resurs: <http://www.promcluster.ru/index.php/publications-cls.html>.

## **BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION KLASTERGA EHTIYOJ**

*Akratova G.R., Бошлангич таълим назарияси  
кафедраси доценти, п.ф.н. БухДУ*

Bugun barcha sohalarda: iqtisodiyotda, qishloq xo‘jaligida, qurilish sohasiga, sanoatga, ishlab chiqarishga tatbiq qilinadigan klaster tizimi, ilm-fan, ta‘lim tizimini rivojlantirishga ham xizmat qilishi ta‘kidlanmoqda.

(Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

“Xalq so‘zi” gazetasining 2019-yil, 28-mart sonidagi “Ta’limda innovatsion klaster metodining qo‘llanish imkoniyatlari” nomli maqolada: “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri - uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo‘lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o‘z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta’lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir,” – deb e’tirof etilgan.

Mazkur maqola muallifi O‘zbekiston Fan arbobi, Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori G‘.I.Muhamedovning shogirdi U.N.Xodjamqulov “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi doktorlik ishida pedagogik ta’lim innovatsion klasteri (PTIK) – muayyan ijtimoiy-geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida bir-biri bilan o‘zaro manfaatli uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub’ektlar, texnologiyalar va ishchi kuchlarining integratsiyalashuvini ta’minlovchi mexanizm, deb ta’riflagan. Olim tomonidan “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning “ongli o‘qish” ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan “Pedagogik ta’lim klasteri vositasida o‘qish darslarining samaradorligini oshirish” mavzusida adabiy tur va janrlar bo‘yicha turkumlangan didaktik o‘yinlar to‘plami ishlab chiqilgani ham diqqatga sazovor.

Zotan, aytilish mumkinki, bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishda, sifat va samaradorlikka erishishda aynan innovatsion klasterga ehtiyoj katta.

Ta’lim tizimidagi klaster shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo‘lishiga qaratiladi, uning bog‘liqligi – bog‘cha, maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta’lim zanjirini bir-biriga bog‘lanishi bilan tizimda yuksalishga asos bo‘ladi.

Ta’lim turlari orasida uzviylik mavjud, ammo zanjirning alohida bo‘g‘inlari ichida katta uzilishlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, maktabgacha ta’limdan bola maktabga borib o‘qishni boshlaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi, pedagogi o‘zi tarbiyalagan bolaning maktabdagi o‘qish holati bilan qiziqmaydi.

Xuddi shu kabi maktabni, kollejni yoki akademik litseyni o‘quvchi tugatib oliy ta’limga o‘qishga kiradi, maktablardan necha foiz o‘quvchi oliy ta’lim muassasasiga kirganligi hisob kitob qilinadi-yu, ammo institutda qanday o‘qiyotganligiga e’tibor kamroq, nazarimda.

Oliy ta’limni talaba muvaffaqiyatli tugatib, ishlab chiqarishda faoliyatni boshlaydi. Necha foiz talaba ishga kirgani monitoring qilinadiyu, ularning keyingi faoliyati xususida ba’zi-ba’zida qiziqib qolamiz, xolos.

Malaka oshirishda ham shu holat takrorlanadi: 1 oy yoki, 2 oy davomida tinglovchilar o‘qib sertifikatni olgach, faoliyatiga qaytadi. Malaka oshirishda olgan innovatsion bilimini o‘z faoliyatida qo‘lladimi, yoki yo‘qmi, yoxud ish jarayonida biror o‘zgarish bo‘ldimi bu monitoring qilinmaydi. Demak, bu yerda ham uzilishlar vujudga kelmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion klasterni joriy etish ta’lim muassasalarining raqobatdosh tarkibiy bo‘linmalari bir-birlariga qo‘llab-quvvatlovchi ta’sir ko‘rsatadi.

Ya’ni, bir vaqtning o‘zida raqobat muhitida bo‘lish bilan birga, ular raqobat qoidalariga zid ravishda rivojlanish uchun bir-birlariga "yordam berishlari" kerak.